



## MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL QILISHNING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI

**Muxammadiyev Lochin G'ayratovich**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasii  
katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mazmun-mohiyati, ilmiy-uslubiy asoslari va asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek maqolada, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mazmun-mohiyati, ilmiy-uslubiy asoslari va asosiy yo'nalishlari, ijtimoiy-tarixiy genezisi, shakllanish va rivojlanish darajalari ilmiy asoslangan. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamonaviylashtirish uslublarini Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida tashkillashtirish zaruriyati tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *qadriyat, milliy qadriyatlar, ijtimoiy borliq, ijtimoiy ong, dunyoqarash, Yangi O'zbekiston, ma'naviyat, ma'rifat, tarbiya, axloq, ruh, iroda, go'zallik, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, ta'lim muassasalari.*

**Abstract:** *In this article, the essence, scientific-methodical foundations and main directions of spiritual-educational works are highlighted. Also, in the article, the essence, scientific-methodical foundations and main directions, socio-historical genesis, levels of formation and development of spiritual-educational works are scientifically based. The need to organize methods of modernization of spiritual and educational work in educational institutions on the basis of the development strategy of New Uzbekistan is analyzed.*

**Key words:** *value, national values, social existence, social consciousness, worldview, New Uzbekistan, spirituality, enlightenment, education, morality, spirit, will, beauty, spiritual-educational education, educational institutions.*

### KIRISH

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etishga yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy jarayonlar tobora jadallashmoqda. Ushbu jarayonlar natijalarining samaradorligi milliy hamjihatlikni mustahkamlashni ham taqozo qiladi. Chunki, mamlakat ichki va tashqi qudrati uning intellektual salohiyati potentsialiga bog'liqligida namoyon bo'ladi. Barkamol avlodni tarbiyalash va shu orqali demokratik davlat boshqaruvini takomillashtirish mamlakatimiz siyosatining ustuvor vazifasini belgilab beradi. Bu esa, o'z-o'zidan mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkillashtirish tizimini tubdan o'zgartirishni ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish zaruriyatini kun tartibiga quymoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkillashtirish tizimi jamiyatda ayri tarzda sodir bo'lgan tendentsiya emas. U jamiyatning boshqa sohalarida yuz bergan va berayotgan jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Binobarin, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari va asosiy yo'nalishlarini aniqlash uchun



uning mazmuni va mohiyatini ijtimoiy jarayonlar kontekstida tadqiq etmoq darkor. Shu sababli “ma’naviyat”, “ma’rifat”, “tarbiya” tushunchalarining mohiyati bilan tanishib “ma’naviy-ma’rifiy tarbiya” tushunchasining mazmunini yoritish maqsadga muvofiqdir.

Ma’naviyat tushunchasiga ilmiy asarlarda turlicha yondoshuvlar asosida har xil fikrlar bildirilgan. Ilmiy adabiyotlarda ma’naviyatga nisbatan mavjud qarashlar yoki nazariyalar, ta’limotlarning umumiy ilmiy usulidan kelib chiqib, qanday bo’lishi mumkinligini faraz qilsak, juda qiziqarli va o’ta rang-barang, ayrim hollarda bir birini to’liq inkor qiluvchi mulohazalarni ko’ramiz. Ularning ba’zilar falsafa, tarix, tilshunoslik, adabiyot va san’at ma’lumotlariga, xulosalariga tayangan va izchil ratsionalistik bo’lsa, ba’zilarida noilmiy va irratsional unsurlar, dalillar, farazlar, vulgar talqinlar uchrab qoladi. Bunga misol qilib freydzimni, umuman psixonalizmini ko’rsatish mumkin. Ayrim olimlar ma’naviyatga diniy-mistik nuqtai nazardan yondashadilar. U inson mutlaqo tushuntirishdan o’zib, ilohiy inoyat, “qalb ko’zi” bilan ko’rilgan haqiqat, g’oyibdan insonga ko’rsatilgan hidoyat, yo’l, ishora, ko’ngilga solingan ijod va faoliyat, botiniy ilmlar, nozik va ilohiy his-tuyg’ular va h.k. deb tushuntiriladi. Shunga ko’ra G’arb va Sharq ilmiy qarashida ma’naviyat atamasiga bo’lgan yondashuv bir-biridan farq qiladi. G’arbda ko’proq “dux”, “duxovno” atamasi ishlatiladi. Ya’ni insonning tarkibini ikki qismdan: birinchisi tanadan, ikkinchisi ruhiyatdan iboratligini qayt etishadi. Bunda ma’naviyat atamasi o’z aksini topmaydi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilishning ijtimoiy mexanizmlari, funktsiyalari va mezonlari bugunga kelibgina ilmiy tadqiqot mavzuiga aylanayotgani yo’q. Qadimgi va o’rta asrlarda mazkur muammoning turli jihatlari mutaxassislar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan.

MDH davlatlarining ko’plab olimlari ma’naviy madaniyatning voqelikda rivojlanish sababiyatlari, turli xalqlar tafakkuridagi kombinatsion o’zgarishlar, ayrim andozalarning yangicha tasavvur va milliy ruhdagi istak-mayllar bilan bog’liqligini ko’rsatib berishgan. Jumladan, Yu.Borev, L.Gumelyov, A.Guseynov, V.Lektorskiy, I.Ilinskiy, M.Kagan asarlarida ushbu jihatlarga chuqur e’tibor qaratilgan. O’zbekistonda, J.Tulenov, M.Xayrullaev, I.Imomnazarov, I.Jabborov, Y.Jumaboev, E.Yusupov, S.Shermumammedov, X.Shayxova, T.Maxmudov, A.Jalolov, S.Otamuratov, U.Qorabaev, J.Yaxshilikov, N.Muxammadiev, A.Erkaev, O.G’aybullaev A.Erkaev, Q.Nazarov, J.Boysunov, SH.To’raevlarning tadqiqotlarida o’rganilgan[4].

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ilmiy-uslubiy asoslari: tarixiylik, mantiqiylik, analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, integratorlik, regulyatorlik, kompensatorlik, legitmlilik va hakoza tartibda bo’ladi. Biz bu uslublar aniq bo’lganligi sababli hajm muammosidan kelib chiqib ilmiy izoh berishdan cheklanamiz.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma’lumki, Yevropa falsafasi “axloq”, “ruh”, “iroda”, “go’zallik” kabi tushunchalarni tadqiq etishda ulkan natijalarga erishgan, teran tadqiqotlarni oshirgan bo’lsa-da,



ma'naviy hayotni yaxlit holda emas, bo'lib o'rganish an'anasiga sodiq qolgan. Chunonchi, Gegel ta'limotida "g'oya" Shopenhauer ta'limotida "iroda" substantsional (borliqning o'zagi o'laroq) ahamiyat kasb etadi va butun tarixiy jarayonning faol sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Bunday hol ularning ta'limotiga yaqqol (Shopenhauer) yoki noyaqqol (Gegel) mistik sifat baxsh etadi. Gegel barcha moddiy va ideal hodisalarni — tabiat, inson, jamiyat, davlat, axloq, huquq, san'at, ong, tafakkur, tushuncha kabilarni absolyut (mutlaq) g'oyaning o'zgacha borlig'i, moddiylashgan muqobil shakli deb hisoblaydi. Gegel ularning barchasini mutlaq g'oyaning o'z-o'zidan taraqqiy etishi, o'zining qarama-qarshi, inkor shakliga aylanishi kabi o'zi taklif etgan dialektikaning qonunlariga bog'lab o'rganadi.

Yer sharining turli mintaqalarida ham ma'naviyatni yaxlit holda o'rganish tizimi qadimda mavjud bo'lmagan. Faqat ma'naviyatni aks ettiruvchi "axloq", "ruh", "iroda", "go'zallik", "nafosat", "g'oya", "mafkura" kabi sohalar bilan bog'liq masalalar tahlili qadim zamonlardan boshlangan. Masalan, Qadimgi yunon ilmiy-falsafiy qarashlarida inson ma'naviy hayoti uch guruhga bo'lingan – aql (tafakkur), iroda va tuyg'u. Aqlni (tafakkurni) mantiq fani, irodani etika fani tadqiq etgan. XVIII asrga kelib estetika fani vujudga kelgan. U inson tuyg'ulari va kechinmalarini go'zallikka munosabat nuqtai nazaridan o'rgana boshlagan. Ilgari ushbu masalalar umumiy falsofiya fani doirasida bilish nazariyasi, etika, poetika, ritorika va sh.k. fanlar tomonidan o'rganilgan. Psixologiya ushbu masalalarni boshdanoq mushtarak tarzda, ammo mavzu doirasini toraytirib va xususiylashtirib, uni inson ongining tashqi ta'sirga javobi (reaktsiyasi) tarzida o'rgangan[5].

Markaziy Osiyo mutafakkirlari ham ma'naviyat masalasida ko'plab ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan. O'lkada faoliyat olib borgan diyarli barcha faylasuflar sohani o'rganish mexanizmiga mistik yondoshgan va islom mamlakatlarida takomillashib borgan. Boshqa hududlardan farqli o'laroq Markaziy Osiyo mutafakkirlari qarashida insonni tana, ruhiyat, ma'naviyat qismiga ajratishi holati mavjud. Masalan, Abu Nasr Forobiy ma'naviyatni "aql" deb etirof etadi. Aql ruhiyatdan farq qiladi va uni chegaralab turadi. Tana va ruhiyat ayri holda namoyon bo'lolmasligini ta'kidlaydi. Aql tana va ruhiyatni tartibga solishini uqtiradi. Shunga ko'ra, Fozil shahar hokimida 12 ta fazilat mavjud bo'lishi zarurligiga alohida urg'u beradi[6].

Ma'naviyat atamasini alohida ilmiy fenomen sifatida tahlil qilishga bo'lgan keng e'tibor mustaqillik davri bilan bog'liq. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov – ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini o'yg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir deb ta'rif beradi[7]. Abdurahim Erkaev esa, ma'naviyat - bu ijtimoiy ongning e'tiqod va qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan sobit barqaror tuyg'ulari, ehtirolari, tushunchalari, g'oyalari, me'yorlari, ijtimoiy mo'ljallari, ideallaridir, ularning yaratilish jarayoni va madaniy merosda, urf-odatlarida aks etishi, millatga muayyan maqsadlarga erishish



uchun yordam beradigan iroda hamda jamiyatda qaror topgan aqliy va hissiy, huquqiy, ruhiy va mafkuraviy muhitidir[5], deb takidlaydi. Sadulla Otamuratov – ma'naviyat insonning ichki dunyosini o'zida ifoda ettiruvchi tushuncha[8] ekanligini asarlarida keltirib o'tadi. A.Erkaev ma'naviyat arabcha ma'ni (ma'no) so'zidan, u esa "a'no" o'zagidan yasalganligi, a'no – birlamchi, tub mohiyat mazmunini anglatishi, "ma'naviya" arab tilida juda ko'p mazmunga egaligini, lug'atlarda uning 8-10 tagacha mazmuni qayd etilganligi, uning arabchadan kelib chiqqani, arabcha o'zakdan yasalgani shubhasiz[5], deb qat'iy ta'kidlagan. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida ma'naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat atamasining asosida "ma'no" so'zi yotishi ko'rsatilgan[9].

Ma'rifat fenomeniga ham turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida quyidagicha izohlanadi. Ma'rifat - kishilarning ongini, bilimni, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma'lumotlar majmuasini ham bildiradi. Ma'rifat ilmu urfon ma'nosida ham ishlatiladi. Ma'rifat tushunchasi madaniyat, ma'naviyat tushunchalari bilan bog'liq bulgan. Ma'rifat ma'naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo'lishga yordam beradi. Ma'rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo'ladi. Ma'rifat – bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif va uni yoyish vositasidir. Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshirilishi bayon qilingan. Shuningdek, Tasavvufda ma'rifat Sufiylarning ruhiy kamolatga erishuvining asosiy bosqichlaridan biri sifatida talqin etiladi[9].

Ma'rifat atamasining ma'no-mazmuni haqida internet axborotlarida "ma'rifat" so'zi "arafa" fe'lidan olingan "miymiy masdar"dir Uning ma'nosi – "bilimdonlik"[10], deb ham ta'kidlanadi. Ushbu fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, ma'rifat tushunchasi ta'lim-tarbiya ma'nolarini anglatadi. Ma'naviyat va ma'rifat so'zlarining o'zaro birikmasidan ma'naviy targ'ibot tushunchasi shakllanadi.

Odamlar qalbi va ongida yuksak insoniy tuyg'ularning qaror topishi, jamiyatda olijanob fazilatlar ustuvor bo'lishida "ma'naviy targ'ibot" tushunchasi muhim ahamiyatga ega. "Ma'naviy targ'ibot" tushunchasi aslida ta'lim-tarbiyaning muhim ko'rinishidir. "Targ'ibot" atamasining o'zagini "rag'bat" so'zi tashkil etgani bois, u insonni biror harakatga rag'batlantirishini nazarda tutadi[10]. Ammo, targ'ibot atamasi ma'naviyat va ma'rifat so'zlarining mohiyatan birikmasi hisoblansada "ma'naviy-ma'rifiy" tushunchasidan farqli jihati mavjud. Ya'ni, targ'ibot tushunchasi ma'rifatga nisbatan torroq tushuncha. Targ'ibot ma'lum fikrni (biror g'oya, mafkura, fanning ma'lum qismi, dinning ayrim nazariyasi va h.k.ni) yoyishga harakat qiladi. Ma'rifat esa ancha kengroq tushuncha bo'lib, barcha ezgu fikrlar, fan, ta'lim, din, go'zallik, axloq, g'urur, or-nomus, iroda v.k.ni qamrab oladi. Umumlashtirib aytganda, ma'naviy targ'ibot ma'naviyatning ma'lum bir bo'lagini targ'ib qilsa, ma'rifat barchasini



o'z qobig'ida tutadi. O'zbek tilining izohli lo'g'atida, ma'rifat - bilim, fan, tanishish ma'nosini anglatishi izohlangan. Shuningdek, ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g'oyalar asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat. Ma'rifat bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari va sohalarini o'ziga qamraydi[11] – deb belgilanganligi fikrlarimiz isbotidir.

Zero, jamiyat taraqqiyoti ma'naviy-ma'rifiy ishlarsiz amalga oshmaydi. Chunki, yoshlarni tarbiyalash, mamlakat kelajagini ta'minlash bu davlat buyurtmasidir. Shu sababli ma'naviy-ma'rifiy ishlar va uni tashkil etish mamlakatimiz taraqqiyoti uchun muhim jarayon bo'lib, zamon bilan hamnafas barkamol avlodni tarbiyalash, mustaqil hur fikrga ega jahon talablariga javob beradigan va raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni yetishtirish, komillik martabasiga erishgan insonlarni shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida shaxs bo'lib takomillashmagan insonlarni tarbiyalamasdan turib istiqboldagi strategik vazifalarni amalga oshirish mushkul. Ma'naviy - ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot ishlari hech qachon hozirgidek dolzarb vazifaga aylanmagan. Ma'naviy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lgani, mafkuraviy tahdid va axboriy xurujlar ko'payib borayotgani hamda odamlar ongi va qalbini egallash yo'lidagi kurash jarayonlari kuchaygani uchun hayotning barcha jabxalari, ishlab chiqarish, aholining hamma qatlamlari orasida ma'naviy - ma'rifiy va mafkuraviy sohada jadal ishlarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Davlatimizda ta'lim-tarbiyaning to'g'ri, samarali yo'naltirilishiga bo'layotgan e'tibor ushbu vazifalar negizini tashkil etadi. Barchamiz yaxshi tushunamiz, ta'lim-tarbiya – har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim va ustuvor masaladir[3, 353-354]. Shuning uchun ham ma'naviy - ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot ishlari qanday dastur va yo'nalish, qaysi ko'rsatma va qo'llanma, qanaqa reja asosida, qay saviyada, kimlar tarafidan olib borilayotgani g'oyat muhim masala bo'lib turibdi.

Mustaqillik biz uchun jamiyat taraqqiyotining butunlay yangi davrini boshlab berdi. U O'zbekistonimizni, o'zbek millatini jahonga tanitdi. Milliy manfaatlarimizga, ma'naviy qadriyatlarimizga, demokratik mezonlarga tamomila muvofiq yangi jamiyat qurishga kirishdik. Milliy davlatchilik poydevori, uning huquqiy asoslari yaratildi. Davlat islohotlarining bosh tashabbuskori, ularni muvofiqlashtiruvchi asosiy kuchga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining davlatni qonuniy-huquqiy takomillashtirish demokratik asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Odamlar ongi, dunyoqarashida yangilanish boshlandi. Tarixiy milliy qadriyatlar, urf-odatlarining tiklanishi xalqning milliy ruhiga kuchli ta'sir etdi. Ona tilimiz va dinimizga bo'lgan yangicha munosabat, vatanga va istiqloq g'oyalariga sadoqat milliy g'urur, iftixor tuyg'ularining o'sishida katta rol o'ynaydi. Vatan tushunchasi, vatanparvarlik tuyg'usi yangicha ma'no kasb etdi. Milliy an'analar, bayramlar, Ro'za va Qurbon hayitlari xalqimiz qadri, izzat-xurmati, g'ururining oshishiga olib keldi. Tarixiy milliy qadriyatlarimiz bilan yangidan tanishuv, ularni tiklash va boyitish har birimizda milliy



o'zligimizni, tarixiy merosimizga e'tiqod va faxrlanish tuyg'ularini mustahkamladi. Biz ko'proq boy tariximiz, qadriyatlarimiz, an'analarimizni o'rgana boshladik. Odamlardagi boqimandalik, loqaydlik, mutelik ruhiyati o'rnini tadbirkorlik, ishbilarmonlik, fidoyilik egallay boshladi. Ularda Vatan oldidagi, el-yurt oldidagi o'z burchini e'zozlash tuyg'usi ancha kuchaydi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin xalqimizning uzoq vaqt unutilgan yoki ataylab odamlardan berkitilgan milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni xalqimizning kelajagini o'ylab, yurtimizning ravnaqi yo'lida rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan o'lgan ishlar, shuningdek bu borada oldimizda turgan ulkan vazifalar belgilab olingandi. "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z xoliga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin"[7]. Bu fikrlar har bir vatanparvar fuqaroni o'yg'a toldiradi va xushyorlikka chorlaydi. Shubhasiz muammolar yechimi o'z-o'zidan ma'naviy-ma'rifiy ishlar zimmasiga tushadi.

Bugungi kun nuqtai nazaridan kelib chiqib "ma'naviy-ma'rifiy ishlar" oldiga qo'yilgan ilmiy-uslubiy vazifalari qo'yidagilardan iborat:

birinchidan, ma'naviy - ma'rifiy tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi rolini va uni yoshlar ongiga singdirish zarur;

ikkinchidan, uzluksiz ta'lim tizimini insonparvarlashtirishning tarbiyaga ta'sirini, eski mafkuradan insonlarning halos bo'lishini tezlashtirish uchun barcha ishlarni tezlashtirish kerakligini;

uchinchidan, ma'naviy-ma'rifiy islohatlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligini ochib berish;

to'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida qabul qilingan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yanada takomillashuvini ko'rsatish va bu masalada amalga oshirilgan ishlarni umumlashtirish kerakligini;

beshinchidan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ma'naviyat, ma'rifat, mafkura tushunchalarining o'zaro bog'liqligini, aloqadorligini, biri ikkinchisini inkor qilmasligini tarbiyaviy jarayonda ulardan umumlashgan holda foydalanish mumkinligini bildirish;

oltinchidan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning, jarayonlarning mohiyati va asosiy yo'nalishlarini tahlil etish.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ma'naviyatning mohiyatini chuqur anglash muvafaqqiyat garovidir. Chunki ma'naviyat-insonning insoniylik mohiyati, shaxsdagi ijobiy fazilatlar majmui, insonning zohiriy va botiniy qiyofasi. U inson hayotining tub



mohiyatini belgilaydigan aqliy, ruhiy, axloqiy va jismoniy qarashlar, ko'nikmalar, odatlar tizimidir. Ma'naviyat – har bir insonning milliy va umuminsoniy komillik darajasi, unga yetaklovchi, undovchi imkoniyat. U inson shaxsini insoniylik bilan boyituvchi, kamol toptiruvchi, ko'rkamlashtiruvchi beqiyos hayotiy omil. Ma'naviyat – yaxshilik va ezgulikka moyil, yomonlik va yovuzlikdan tiyilish, nafosat va haqiqatga, halollik va rostgo'ylikka intilish, o'zi mansub jamiyatning axloqiy, huquqiy, ma'rifiy-madaniy mezonlariga amal qilish hissidir. U insonning umrguzaronlik mohiyati, faoliyatining tabiatini belgilab bergan va faoliyatida gavalangan ijobiy, go'zal fazilatlar majmui. Ma'naviyatda inson qalbi, shuuri, aql-zakovati, tabiati, bilimi, madaniyati aks etadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy vazifasi yuksak axloqiy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan komil insonni tarbiyalashdan iborat. Bugungi kunda bilimdon, yetuk malakali, yuksak aql-zakovat va istiqbol dunyoqarashiga ega tadbirkor kishilargina jamiyatimizning jahon tsivilizatsiyasi sari taraqqiyotini tezlashtira oladi. O'zbekistonning dunyodagi rivojlangan mamlakatlar safidan munosib o'rin egallashini ta'minlay oladi. O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning va yangi jamiyatni qurishimizning eng asosi bo'lgan ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish hamda uni izchillik bilan hozirgi zamon talablari, milliy ruhiyatimizning ildizlariga suyangan holda yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb va g'oyat muhim vazifasidir.

Ma'naviyat va ma'rifat davlat ichki hayotidagi bir butunlikni, odamlar ruhiyatidagi ko'tarinkilik va kelajakka ishonchni, aql-zakovat yuksakligini, o'z faoliyatida tinchlikni, millatlararo hamjihatlikni barqaror rivojlantirish yo'lini aniq belgilashdagi o'z fuqarolarning orzu-umidlarini, manfaatlarini ifoda eta bilish, uni buyuk kelajak sari harakatga yo'naltirish va unga rahbarlik qilish salohiyati hisoblanadi. Ma'naviyat va ma'rifatning yangi jamiyatni qurishdagi qudratli kuch va bebaho manba ekanligi quyidagi masalalarda o'z ifodasini topadi va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ularga alohida e'tibor qaratiladi.

Birinchidan, ma'naviyat va ma'rifat jamiyatda mavjud bo'ladigan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma'rifiy sohalarni, ularni o'zaro bog'lab, uyg'unlashtirib, davlatning bir butun mustaqil subyekt sifatidagi maqomini ta'minlab turadi.

Ikkinchidan, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy huquqiy va ma'rifiy sohasini rivojlantirishdan ko'zlagan asosiy maqsadi insonni kamol toptirish, ehtiyojlarini qondirish, uni barkamollik darajasiga ko'tarishdan iboratdir. Ma'naviyat va ma'rifatni yuksak zamonaviy talablar darajasida tashkil qilgandagina muayyan vazifalarni insonga xizmat qildirish mumkin bo'ladi. Bu jarayonda ma'naviyat va ma'rifat me'yor, mezon va yetakchi omil rolini o'ynaydi.

Uchinchidan, ma'naviyat va ma'rifat jamiyat oldida turgan muammolar mohiyatini o'zida ifoda ettiradi hamda uni hal qilish uchun fuqarolar va davlat manfaatlarini birlashtiradi. Ma'naviyati va ma'rifati zamonaviy rivojlangan mamlakatlarda xalqning vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'ulari kuchli bo'ladi. Bunday holat o'z navbatida davlat va xalqning birligini mustahkamlashda turli xil



millatlar va ijtimoiy qatlamlarning bir-birlari bilan umummanfaatlar yo'lida jipslashishlarida qudratli omil sifatida xizmat qiladi.

To'rtinchidan, ma'naviyat va ma'rifat milliy ong va milliy tuyg'u, milliy g'oyalarni shakllantiruvchi omildir. Bular o'z navbatida har bir millatning o'z-o'zini anglashiga, manfaatlar yagonaligini tushunishiga, kishilarda milliy g'urur, qadr-qimmatning mustahkam dunyoqarashga aylanishiga yordam beradi.

Beshinchidan, ma'naviyat va ma'rifat bor joyda ehtiyojlar va zaruriyatlar ham yuzaga keladi. O'z navbatida ehtiyojlar va zaruriyatlar shaxs, millat va davlatni kechagidan bugun, bugundan ertaga yana ham yaxshiroq hayot kechirishga, barkamol bo'lishiga yetaklaydi, shaxs, millat va davlatning tarqqiyoti sari harakat qilishga da'vat etadi. Bu jarayonda ma'naviyat va ma'rifat shaxs, millat va davlat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi bosh omil hisoblanadi.

Oltinchidan, ma'naviyat va ma'rifat aql-zakovat, salohiyat yuksakligining muhim mezoni va manbai hisoblanadi. Bu orqali inson millat mahsulini millat va mamlakatning yuksak moddiy va ma'naviy boyliklari darajasiga ko'taradi.

Etinchidan, ma'naviyat va ma'rifat davlat ichki hayotida tinchlik, barqarorlikni vujudga keltiradi, har qanday munozarali masalalarni aql va vazminlik bilan hal qilishda xalq ruxiyatini shakllantiradi.

Sakkizinchidan, ma'naviyat va ma'rifat kishilarni sub'ektiv, qarindosh-urug'chilik, mahalliychilik manfaatlar ehtiroslarga berilishidan saqlaydi, shaxsiy va mahalliy manfaatlarini millat hamda Vatan manfaatlariga uyg'unlashtirish muhitini vujudga keltiradi, millatning umubashariy qadriyatlar sari intilishini kuchaytiradi.

To'qqizinchidan, ma'naviyat va ma'rifat mamlakatda adolatni qaror toptirish, insonlarni qonunlarning ijodkori va itoatkori darajasiga ko'taradi. Qonunlar davlat, millat va shaxsning har qanday harakatining aniq me'yori darajasiga aylangan mamlakatda demokratik ruhdagi adolatli qadriyatlar shakllanishi mumkin bo'ladi.

O'ninchidan, ma'naviyat va ma'rifat davlatning ichki hayotidagi muammolarni hal qilishning muhim omili bo'lishi bilan birga, u davlatning xalqaro hayotdagi obro'-e'tiborini oshiradi, uning katta imkoniyatlarga ega ekanligini va barqaror taraqqiy etayotganligini tasdiqlaydi. Bu o'z navbatida davlatning xalqaro hayotda harakat qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Ijtimoiy yo'nalish – bunda ko'proq aholining ijtimoiy ma'naviyatini takomillashtirishga e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy muhitni normallashtirish asosiy mexanizm sifatida qaraladi.

Iqtisodiy yo'nalish – aholining iqtisodiy bilimlarini oshirish, tadbirkorlikka yo'naltirish, to'la-to'kis yashash shart-sharoitlarini ta'minlashga yo'naltiriladi.

Madaniy yo'nalish – fuqarolarning madaniyatini yanada oshirish, milliylikdan – zamonaviylikka, zamonaviylikdan - milliylikka asoslantiriladi.





Siyosiy yo'nalish – fuqarolarda siyosiy madaniyat ko'nikmasini takomillashtirish, boshqaruvning turli jabhalariga aloqadorlik hissini o'yg'otish, o'zaro aralashuvini ta'minlaydi.

Huquqiy yo'nalish – inson huquqlarini, erkinliklarini ta'minlash, huquqiy fuqarolik jamiyatini yaratishni maqsad qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mazmuni “ma'naviyat”, “ma'rifat”, “ma'naviy targ'ibot” fenomenlarining o'zaro aloqadorligidan yuzaga kelgan tushuncha. Ma'naviyat va ma'rifat va inson tushunchalari bir butun holdagina muayyan mazmunga ega. Ma'naviyati yuksak, odob-axloqli, ma'rifatli, madaniyatli, elim, yurtim deb yashaydigan birovlariga himmat-muruvvat ko'rsatadigan, yordamga muhtoj kishilarga ko'mak beradigan, o'zgalarga to'g'ri yo'lni ko'rsatishni o'zi uchun baxt deb biladigan shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

#### ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B.440.
2. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.1. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B.570.
3. Mirziyoyev Sh.Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug'va kelajagi farovon bo'ladi. T.3. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2019. –B.400.
- 4.